

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**

**GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI  
ODAM VA UNING SALOMATLIGI KAFEDRASI**

**KARIMQULOVA GULBAXOR**

**“ODAM VA UNING SALOMATLIGI DARSLARIDA  
O'QUVCHILARDA KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISH  
USULARI”**

**MAVZUSIDAGI BITIRUV MALAKAVIY ISHI**

**Rahbar: biologiya fanlari bo'yicha(PhD) doktori, dotsent  
Gaibnazarova.F.P**

**Guliston– 2020 yil**

## MUNDARIJA

KIRISH.....	3
1-BOB.Mummoning o'rganilganlik holati .....	5
1.1 . Pedagogik texnologiyalarining qisqacha tadqiqot tarixi.....	6
2-BOB. Biologiya darsi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, unga qo'yilgan zamonaviy talablar. ....	11
2.1.O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni tanlash .....	15
2.2. Odam va uning salomatligi fanidan Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish metodi), blits so'rov, suhbat, tushuntirish, "Tushunchalar tahlili" metodi asosida kompetensiyalarni shakllantirish .....	21
2.3.Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish metodi), blits so'rov, suhbat, tushuntirish, "Tushunchalar tahlili" metodi asosida dars ishlanma.....	28
XULOSA .....	
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....	

## KIRISH

**Mavzuning dolzarbligi.** Mustaqil Respublikamiz o`zining rivojlanish yo`lidagi birinchi baland ma`naviyatimizni tiklash milliy ta`lim tarbiya sistemasini etishtirishda ularni zamon talabiga mos jahon standarti darajasiga chiqarishda katta ahamiyat berib kelmoqda. Ta`lim haqida qonun va «kadrlar tayyorlashning milliy dasturi» bo`yicha Oliy o`quv yurtlari oldiga yuqori malakali mutaxassislar bakalavr va magistrlar tayyorlashdek murakkab va ma`suliyatli vazifalar qo`yilgan.

Respublikamiz Prezidenti Sh. Mirziyoevning “Oliy talim tizimini yanada rivojlantirish chora- tadbirlari to`g`risida O`zbek iston Respublikasi Prezidentining Qarori” va “O`rta maxsus, kasb-hunar talimi muassasalari faoliyatini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to`g`risida” kab i me`yoriy hujjatlarda yoshlarga bilim va tarbiya berishda, ularni etuk mutaxassislar qilib shakllantirishda milliy-madaniy merosga tayanish izchilligi o`z aksini topgan.[1]

Shunga muvofiq ta`lim muassasalarida o`qitiladigan barcha o`quv fanlarini ilg`or pedagogik va axborot texnologiyalari bilan ta`minlashni ko`zda tutadi. Shu sababli barcha o`quv fanlari kabi biologiyani o`qitishda ham pedagogik texnologiyalardan foydalanish zamon talabi sanaladi.

Bugungi kuni ta`lim tizimida qo`llanilayotgan an`anaviy ta`limning mazmuni o`zgaradi va yangi ta`lim-tarbiya jarayoni tashkil etildi. Bu jarayon pedagogik munosabatlarning demokratiyalashtirishga o`quvchilarning bilish faoliyatining ta`lim-tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga, o`quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirishga, hamda ishlashga va xalq pedagogikasi maydonlaridan foydalanishga harakatlangan.[2]

Biologiyani o`qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanish, o`quvchilarning ongiga milliy istiqlol g`oyalarini singdirish, vatanga sadoqat, umuminsoniy qadriyatlariga hurmat ruhida tarbiyalash imkonini beradi. Ta`lim sohasi bo`yicha davlat siyosatidagi tubdan o`zgarishlar o`qituvchi faoliyatini yangiladi. O`quvchilarda erkin fikrlash, insonparvarlik tuyg`ularini mustahkamladi.

Bizning bitiruv mutuxassislik ishimizda, oldimizga qo`ygan vazifamiz biologiya darsliklari bo`yicha mavzularni o`qitishda yangi pedagogik va axborot texnologiyalarning metodlaridan, uslublaridan va shakllaridan foydalanish orqali biologiya darslarining natijaliligini oshirishga imkon beradigan tematikalik yangi texnologiyalarni tanlash va qo`llash orqali biologik ta`limning samaradorligi bo`lishiga o`z xissasini qo`shgan bo`lib hisoblanadi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev ta`kidlaganidek, ilm –fan – taraqqiyot asosi. Zamonaviy ilm-fan yutuqlariga, innovatsion g`oyalariga tayanmagan davlatning ham, jamiyatning ham kelajagi yo`q. Faqat ilm va ma`rifat, intellektual salohiyat, xar tomonlama bilimli kadrlar hisobidan biz O`zbekistonni yangi taraqqiyot bosqichiga olib chiqa olamiz. Ta`lim-tarbiya tizimining bugungi kundagi asosiy vazifasi o`quvchilarning Vatanimizni sevadigan, o`z bilimi va iste`dodiga suyanadigan hamda mustaqil ravishda zamonaviy axborot-komunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda bilim oladigan qilib tarbiyalashdan iborat. Mazkur vazifalar samarali darslar orqali amalga oshiriladi. Odam va uning salomatligi fanini o`qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni o`rgatish hamda amalda qo`llash ko`nikmalarini shakllantirish orqali ta`lim samaradorligini ta`minlashdan iborat.[2]

**BMIning maqsadi:** umumiy o`rta ta`lim maktablari Odam va uning salomatligi fanidan ta`lim-tarbiya jarayonida zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni qo`llash orqali kompetensiyalarini rivojlantirish.

**BMIning vazifasi:**

Odam va uning salomatligi fanini o`qitishda zamonaviy yondashuvlarni tatbiq qilish, innovatsiyalardan foydalanish uchun zarur bo`lgan bilim va ko`nikmalarni shakllantirish tajribalarini o`rganish kompetensiyalarni rivojlantirish jarayonidagi o`rnini aniqlash.

O`quvchilarni biologiya fanidan olgan bilimlarini hayotda qo`llay olish ko`nikmalarini shakllantirish.

Zamonaviy axborot-texnologiyalaridan foydalangan holda kompetensiyalarni rivojlantirish.

O`quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish va kasbga yo`naltirish.

**BMning ob'ekti.** Odam va uning salomatligi fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni tadbqiq etish jarayonida biologiya darslari

**BMning predmeti.** Biologiya darslarni turlari, xususiyatlari, o'quvchilarning bilim darajasini o'rganish tadqiqot predmetini belgilaydi.

**Tadqiqot metodlari:** Odam va uning salomatligi fanini o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvni tadbqiq etish mazmuni, shakl, vositalari va hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish metodi), blits so'rov, suhbat, tushuntirish, "Tushunchalar tahlili" metodlari.

**Ishning ilmiy yangiligi.** Ushbu bitiruv malakaviy ish Sirdaryo viloyati Guliston shahar 11-umumta'lim maktabida biologiya darslarida kompetensiyalarni shakllantirishda hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish metodi), blits so'rov, suhbat, tushuntirish, "Tushunchalar tahlili" metodi asosida dars islanmalari yaratildi.

**Bitiruv malakaviy ishining tuzilishi va hajmi.** Bitiruv malakaviy ishi kirish, 2 bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Ishning hajmi 665 betdan iborat bo'lib, 21manba (7 tasi chet el adabiyoti), jadvallar va rasmlarni hamda №11 umumta'lim maktabining 8-sinfga 2020-yil "Muskullar va ularning funksiyasi" mavzusidagi bir soatli ish reja konspektini o'z ichiga olgan.

## **1-BOB. MUMMONING O'RGANILGANLIK HOLATI**

Biologiya fanini o'qitishda zamonaviy yondashuvlar va innovatsiyalarni o'rgatish hamda amalda qo'llash ko'nikmalarini shakllantirish orqali ta'lim samaradorligini ta'minlashdan iborat.[3]

Biologiyani o'rganishda va o'qituvchining o'rganilayotgan materialini izlash mazmunli sifatli o'zlashtirish ularda hayotiy kompetensiyalarni shakllantirish ta'lim texnologiyasiga bog'liq. Shuning uchun pedagogik texnologiya nazariyasidan uning mohiyati, shakllanishi, taraqqiyoti, tarixi, afzalliklari, ta'lim jarayonining istiqbolini ta'minlashdagi o'rni va roli o'rganiladi. Biologiyani o'qitishda pedagogik texnologiyalardan foydalanishda asosiy materiallar J.O.Tolipova 1992., A.T.G'afurov va boshqa 1992.

J.K.Yo'ldoshev 1994., G.K.Selevko 1918., A.Yu.Burtseva 2001., Ch.Yu.Kurochkina 1999., T.S.Sodikov, A.e.Abilkasimova 2000., J.O.Tolipova, A.T.G'afurov 2002; M.N.Azizxojaeva 2003; J.O.Tolipova 2004 (1-qism); U.T.Toipov va boshqa 2005; A.T.G'afurov va boshqa 2005 va boshqalarning ilmiy ishlaridan metodik qo'llanmalaridan olindi. Olingan nazariy ma'lumotlar biologiyani o'qitish amaliyotiga tadbiiq etish uchun biologiya fanlaridagi ayrim mavzudagi darslarda foydalanishda va darslarning natijaliligi aniqlandi.

O'quv faoliyati muammolari psixologiya sohasida A.S .Granitskaya, V. L. Krutetskiy, N.F.Talizina ishlarida, pedagogika va didaktika sohasida YU. K. Babanskiy, V.P.Bespal'ko, V.V.Guzeev, M.L.Podlasiy, G.K.Selevko, G.I.Shukina ishlarida yoritilgan.

### **1.1 . Pedagogik texnologiyalarining qisqacha tadqiqot tarixi**

Ta'lim sohasida o'zgarishlar yuz berdi. O'qituvchi faoliyati yangilandi, o'quvchilarda bilimga qiziquvchilik, vatanni sevish insonparvarlik tuyg'ulari shakllana boshladi. Shu asosda vataniga, xalqiga millatiga fidokor, mustaqil fikrlaydigan, biron bir masalani ongli ravishda, ma'suliyat bilan hal qiladigan izlanuvchi, yangilikka intiluvchi shaxslarni tarbiyalaydigan yangi ta'lim texnologiyalari bilan qurollardan kadrlar etishtirila boshladi. Texnologiya tushunchasi texnikaviy taraqqiyot bilan bog'liq holda fanga 1972 yilda kirib keldi

va yunoncha ikki soʻzdan texnos (technt)-sanʼat, xunar va logos (logos)- fan, taʼlimot soʻzlaridan tashkil topib hunar fani maʼnosini anglatadi. Lekin bu ifoda zamonaviy texnologik jarayonni toʻliq tasvirlab bera olmasdi.[4]

Texnologik jarayon bu mehnat qurollari bilan mehnat obʼektlariga bosqichma bosqich taʼsir etish natijasida mahsulot yaratish borasidagi ishining faoliyatidir. Pedagogik texnologiya-bu oʻqituvchining oʻqitish vositalari yordamida talabalarga, oʻquvchilarga muayyan sharoitda taʼsir koʻrsatish va bu faoliyat mahsuli sifatida ulardan oldin belgilangan lichnostʼ sifatlarini (dargohlarda) intensiv shakllantirish jarayonidir: texnologik yondoshuv ishlab chiqarishdan olingan boʻlib, unda minglab texnologik jarayonlar loyhalashtirilgan uldar ishlab chiqarishda kerakli natijalarga erishishning tarmogʻi hisodlanadi. Bu texnologiyalarni qoʻllash vaqtida hudud va ularning ijrochisi oʻzgarsa ham, kerakli mahsulot chiqaveradi. Taʼlim tarbiya jarayonida ham shunga erishish uchun pedagogik texnologiya ishlab chiqildi.

Jahon pedagogik tafakkurida taʼlim-tarbiyaga bunday yondashuv yangi emas. XVIII –asardayoq «Buyuk didaktikaning muallif i Yan-Amos Kamenskiy taʼlim jarayonini «... Unda har bir usul va narsalar vaqt jihatidan shunday joylashtirilishi kerak ediki», ... butun pedagogik jarayon yaxshi sozlangan soat kabi bexato yurishi kerak», boʻlgan shaklga shaklga solmoqchi boʻlgandi. Buyuk pedagog Kamanskiy etmagan orzularga XXI-asr pedagoglari etib, bu ijtimoiy hodisa pedagogik texnologiya nomini olib, dunyo oʻqituvchi va pedagoglariga xizmat qilmoqda.[5]

Bu ish AQSh olimlari R.Slavin, B.Blum, D.Kratvol., N.Granlund, Dj.Kerolla, Dj.Blok, L.Anderson, Izrailli-Sh.Sharon, Rossiyadan V.P.Belpalʼgo va boshqalar tomonidan amalga oshdi.[6]

Bizning Respublikamizda asosan biologiyani oʻqitishda taʼlim texnologiyalaridan foydalanish toʻgʻrisida ishlarni A.T.Gʻofurov, J.O.Tolipova, T.Nazarova, D.Matros, V.Zaitsev. G.K.Selevko, e.S.Polat, Kavtaradze, Ch.Yu.Kurochkina M.e.Shurkova, A.B.Abdikasimova, S.S.Fayzullaev, I.T.Azimov, B.Axmadalieva, e.Belʼskaya va boshqalarning mehnatlarida koʻrish

mumkin.[8] Yangi pedagogik texnologiyalar o'z mohiyatiga ko'ra pedagogika fani va amaliyoti yutuqlarining sintezini,

ilgari tajribaning an'anaviy elementlari bilan jamiyat taraqqiyoti, jamiyatni insonparvarlashtirish va demokratiyalashtirish natijalari yig'indisini ifodalaydi.

Uning manbalari va tarkibiy elementlari:

- Ijtimoiy o'zgarishlar va yangi pedagogik tafakkur;
- Pedagogika, psixika, ijtimoiy fanlar;
- Ilg'or pedagogik tajriba;
- Vatanimizning va xorijiy mamlakatlarning ta'lim-tarbiya sohalaridagi ilgarigi va zamonaviy tajribalari;
- Turli xalqlarning tarixiy rivojlanishi davomida shakllangan va ular tomonidan amal qilib kelinayotgan xalq pedagogikasi (Etnopedagogikasi, qaraqalpoq etnopedagogikasi) an'analari.[7]

Demak talabaning virtual muqitga ko'nikib borishi ta'minlanishi kerak. Kompyuterli o'qitish texnologiyasini joriy etishda asosan elektron darsliklardan foylaniladi. I.G.Zaxarova fikricha Elektron darsliklar maxsus fanning mazmuni va mohiyatiga diqqatni jalb etgan holda ko'p sondagi ma'lumotlarni qarab chiqish va ko'proq amaliy mashg'ulotlarni bajarishga imkon yaratadi. Murakkab hisoblashlar va almashtirishlardan xalos etadi. O'rganishning barcha bosqichlarida o'z-o'zini tekshirib ko'rish uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Elektron darslik tajribali o'qituvchi vazifasini, cheklanmagan tushuntirishlarni, sanoqsiz takrorlashlarni, eslatishlarni taqdim etgan holda bajaradi.[9]

Yesipov B.P., Shukina G.I. darslarni asosiy didaktik maqsadlariga ko'ra tasniflashni tavsiya etgan. Mazkur tipologiyada darslar quyidagi tiplarga ajratilgan:

1. Bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish.
2. Bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish.
3. Bilim, ko'nikma va malakalarni mustahkamlash, takrorlash.
4. Nazorat va baholash; kombinirlashgan (majmuali) darslar.

Mazkur tipologiyaning tahlili darsni tashkil etish bosqichlari e'tiborga



olinmaganligini ko'rsatdi.[10] Har bir darsda muayyan bilim, ko'nikma va malakalar shakllantiriladi va rivojlantiriladi, tizimga solinadi va umumlashtiriladi, shuningdek, o'quvchilarning o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalari nazorat qilinadi va baholanadi. Shu sababli, ushbu tipologiya kamchiliklardan holi emas. Kuznetsova N.E. darslarni asosiy didaktik vazifalariga binoan tasniflagan:

1. Yangi o'quv materialini o'rganish.
2. Nazariy bilim, ko'nikma va malakalarni amaliyotga qo'llash va takomillashtirish; bilimlarni tizimga solish va umumlashtirish.
3. Nazorat va baholash.
4. Aralash yoki kombinirlashgan (majmuali) tiplarga ajratgan.

Bu tipologiya haqida ham yuqoridagi fikrlarni aytish mumkin.[11,12]

Belov G.I., Brunovt Ye.P., Zverev I.D., Myagkova A.N. kabi metodist olimlar darslarni o'tkazish usuliga ko'ra tiplarga ajratgan:

1. Ma'ruza darslari.
2. Ekskursiya darslari.
3. Suhbat darslari.
4. Kinodars.
5. Laboratoriya darslari.
6. Mustaqil ishlash darslari.

Bu tipologiyadan o'rin olgan tiplar to'g'ri belgilangan emas, olimlar tomonidan dars tiplari va turlari aralashtirib yuborilgan.[13]

Ivanov S.V. tomonidan darslar o'quv jarayonining asosiy bosqichlari asosida tiplarga ajratilgan:

1. Kirish darslari.
2. O'quv material bilan dastlabki tanishish darslari.
3. Tushunchalarni shakllantirish darslari.
4. Mashq qilish darslari.

Ushbu tipologiyada darslarning hamma xususiyatlari hisobga olinmagan, jumladan, ta'lim mazmunining tarkibiy qismlari bo'lgan ko'nikma va malakalar e'tibordan chetda qolgan. [14]

Verzilin N.M. darslarni tiplarga ajratishda tushunchalarni asosiy mezon etib belgilagan:

1. Anatomik mazmundagi darslar.
2. Morfologik mazmundagi darslar.
3. Filogenetik mazmundagi darslar.
4. Ekologik mazmundagi darslar va h.q.

Qayd etilgan tipologiyani amaliyotga joriy qilish qiyin kechadi, chunki ta'lim-tarbiya jarayonida tushunchalar bir-biri bilan uzviy ravishda shakllantiriladi. Tushunchalarning bu tarzda tiplarga ajratilishi maqsadga muvofiq emas.[15]

Korsunskaya V.M., Rikov N.A., Ponomareva I.N., Traytak D.I. kabi metodist-olimlar bobni o'rganishda darsning o'rni va ta'lim jarayonining bosqichlari asosida tiplarga ajratgan. Har bir bob mantiqiy bog'langan mazmuni o'z ichiga olgan bo'lib, mavzular alohida dars shaklida o'rganiladi. Shu sababli, har bir bobni o'rganishda o'qitish maqsadlari va o'quv materialini yoritish nuqtai nazaridan o'zaro mantiqiy bog'langan darslar tizimidan foydalaniladi. [16]

## **2 BOB. Biologiya darsi va kompetensiyaviy yondashuvga asoslanib, unga qoʻyilgan zamonaviy talablar.**

Dars biologiyani oʻqitishning asosiy shakli boʻlib, uning tuzilishi, tashkil etilishi, unda oʻquvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalari biologiya oʻqitish metodikasining asosiy muammosi sanaladi. Darsda oʻquv dasturi talablari asosida taʼlim-tarbiya uzviyligini taʼminlash, bu jarayonda oʻqitish metodi, vositalaridan samarali foydalanish orqali oʻquvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, DTS bilan meʼyorlangan taʼlim mazmuni va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish, maʼnaviy-ahloqiy tarbiyalash amalga oshiriladi.[3]

Oʻquvchilarga taʼlim-tarbiya berish sifati va oʻqitish samaradorligi darsning tashkil etilishi, ularda oʻquvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalariga bogʻliq boʻladi.

Dars biologiya oʻquv dasturi bilan meʼyorlangan mazmuni oʻrganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega boʻlgan oʻquvchilardan iborat guruh (sinf)larda belgilangan vaqt doirasida, qatʼiy jadval asosida biologiya oʻquv xonasida tashkil etiladi.

Oʻrganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda, darslar tirik tabiat burchagida, oʻquv tajriba maydonida, biologik muzeylarda tashkil etilishi ham mumkin.

Biologiya oʻquv dasturida taʼlim mazmuni oʻquvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zahiralari hisobga olingan holda berilgan. Biologiya oʻquv fanlarining mazmuni mantiqiy ketma-ketlikdagi alohida qismlar – boblar, mavzularga boʻlingan. Har bir mavzu mazmunini oʻrganish darslarda amalga oshirganligi sababli, darslar ham muayyan sistemani tashkil etadi, bir-biri bilan mantiqiy bogʻlangan boʻladi.

Dars-biologiyani oʻqitishning asosiy shakli boʻlib, uning tuzilishi, tashkil etilishi, unda oʻquvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalari biologiya oʻqitish metodikasining asosiy muammosi sanaladi.[4]

Darsda o'quv dasturi talabalari asosida talim- tarbiya uzviyligini taminlash, bu jarayonda o'qitish metodi, vositalaridan samarali foydalanish orqali o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, DTS bilan meyorlangan talim mazmuni va uning tarkibiy qismlarini shakllantirish, manaviy-axloqiy tarbiyalash, ular ongi va qalbiga milliy istiqlol g'oyasini singdirish amalga oshiriladi.

O'quvchilarga talim-tarbiya berish sifati va o'qitish samaradorligi darsni tashkil etilishi, ularda o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirish masalalariga bog'liq bo'ladi. Dars – biologiya o'quv dasturi bilan meyorlangan mazmuni o'rganish maqsadida yoshi, tayyorgarlik darajasi bir xil, doimiy tarkibga ega bo'lgan o'quvchilardan iborat guruh (sinf) larda belgilangan vaqt doirasida, qat'iy jadval asosida biologiya o'quv xonasida tashkil etiladi. [8]

O'rganiladigan mavzu mazmunidan kelib chiqqan holda darslar tirik tabiat burchagida, o'quv tajriba maydonida, biologik muzeylarda tashkil etilishi ham mumkin. Biologiya o'quv dasturida talim mazmuni o'quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlari, bilim zaxiralari hisobga olingan holda berilgan. Biologiya o'quv fanlarining mazmuni mantiqiy ketma-ketlikdagi alohida qismlar – boblar, mavzularga bo'lingan. Har bir mavzu mazmunini o'rganish darslarda amalga oshirganligi sababli, darslar ham muayyan sistemani tashkil etadi, bir-biri bilan mantiqiy bog'langan bo'ladi.

Darsda o'qitish hamma o'quvchilar uchun umumiy bo'lgan o'quv dastur asosida tashkil etiladi, o'qituvchi o'rganilayotgan mavzu mazmuni, talimiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi maqsadlariga muvofiq, o'quvchilarning bilish faoliyatini tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyatni amalga oshiradi.

Demak, o'quvchilarning darsdagi faoliyati ularning o'quv-bilish faoliyatini, o'qituvchining faoliyati esa shu faoliyatni tashkil etish, boshqarish va faollashtirishga qaratilgan pedagogik faoliyat sanaladi.

Darsda o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyati, o'qituvchining pedagogik faoliyati bilan uyg'un tashkil etilganidagina o'qitish maqsadlariga erishish mumkin.

Har bir dars o'quvchilarning mavzuga oid bilim, ko'nikma va malakalarni egallash, ilmiy dunyoqarashini kengaytirish, aqliy rivojlanishi, shaxs sifatida tarbiyalash, atrof-muhitgaongli munosabatni tarkib toptirishga xizmat qiladi va biologiyani o'qitishdan nazarda tutilgan umumiy maqsad va vazifalarning bajarilishiga o'z hissasini qo'shadi.

Darsning muvoffaqiyatli tashkil etilishi ko'p jihatdan o'qituvchining darsga qo'yiladigan talablarni bilishi, unga amal qilishiga bog'liq. Mazkur talablar jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti, manaviy-marifiy qarashlari, talim muassasalarining maqsadi va vazifalari, o'qitish qonuniyatlari va printslaridan kelib chiqqan holda belgilanadi.

Biologiya o'qitish metodikasida darsga qo'yiladigan talablar uch guruh metodik, tarbiyaviy va tashkiliy talablarga ajratiladi.

#### **Metodik talablar jumlasiga:**

Har bir darsning talimiy maqsadlari va uning darslar sistemasida tutgan o'rnini aniq belgilash;

O'quvchilarning tayorgarlik darajasi, o'qitish maqsadlari, o'quv dasturining talablariga mos holda o'quv materialini optimal darajada tanlash;

Darsda rivojlantiriladigan umumiy va shakllantiriladigan hususiy biologik tushunchalar, tarkib toptiriladigan ko'nikma va malakalarni aniqlash;

Darsning har bir bosqichining maqsadini amalga oshirish maqsadida o'qitishning samarali metodlari, vositalari, bilimlarini nazorat qilish va rag'batlantirish metodlarini aniqlash va ularni uyg'unlashtirish orqali o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish;

Darsda o'quvchilarni yalpi o'qitish bilan bir qatorda yakka va kichik guruhlarda mustaqil ishlarini tashkil etish orqali ularda tahsil olishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini orttirish, mustaqillikni rivojlantirish kabilarni kiritish mumkin.

### **Darsga qo'yiladigan tarbiyaviy talablar:**

Darsning o'quvchilarning o'zlashtirayotgan bilim lari, mavzuning ilmiy dunyoqarashni kengaytirish, manaviy-axloqiy, aqliy, gigienik, jismoniy, jinsiy, iqtisodiy tarbiya berish, estetik tuyg'u, mehnatsevarlik, ekologik madaniyatni tarkib toptirish imkoniyatlarini xisobga olgan holda tarbiyaviy maqsadlarining aniq qo'yilishi;

O'quvchilar tomonidan bilimlarni mustaqil o'zlashtirish ko'nikma va malakalari, biologiyani o'rganishga bo'lgan ehtiyojini qondirish, qiziqishini rivojlantirish, ularning faoliyatidagi ijodiy faollik va tashabbuskorlikni

rag'batlantirish; O'qituvchi tomonidan yo'qari darajadagi pedagogik takt va muloqot madaniyatiga amal qilish kabilarni o'zida mujassamlashtiradi.

### **Darsga qo'yiladigan tashkiliy talablar o'z ichiga quyidagi:**

Mavzuni reja asosida darsning ilmiy-metodik savitada loyihslangan ishlanmasi mavjudligi;

Darsning har bir bosqichini tashkil etishning aniq rejalashtirilganligi; Mavzuga oid tarqatma va didaktik materiallar, o'quvchilar bilimini nazorat qilish va baholash uchun o'quv topshiriqlar, differentsiyal topshiriqlarning tuzilganligi;

Vaqtdan unumli foydalanishni yo'lga qo'yish uchun darsning texnologik xaritasining mavjudligi;

O'qitish vositalarining mavjudligi va ulardan samarali foydalanishni yo'lga qo'yilishi kabilarni oladi.

Biologiya o'qituvchi ushbu talablarni yaxshi bilishi, darslarga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazishda albatta ularga amal qilishi lozim.

Biologiyani o'qitishda darslar tizim holda qo'llaniladi shu sababli o'qituvchi dars tiplari va turlarini, ularning o'ziga xos xususiyatlarini bilishi lozim.

### **2.1. O'quvchilarda shakllantiriladigan kompetensiyalarni tanlash**

Kompetensiyaviy yondoshuvga asoslangan ta'lim o'quvchilarda bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirishni emas, balki ularni kompleks ravishda

egallashini taqozo etadi. SHunga ko'ra, o'qitish metodlari ham o'zgaradi. Kompetensiyaviy yondoshuvda o'qitish metodlarini tanlash va konstruksiyasini tuzish asoslarini ko'rib chiqaylik. Buning uchun

kompetensiya va kompetentlik tushunchalarini aniqlashtiramiz. Uning strukturasi, funksiyasini belgilab olamiz. So'ngra tayanch va predmet kompetensiyalarini loyihalash texnologiyasini tuzamiz. Undan o'qitish metodlarini tanlash tamoillari kelib chiqadi.

**Kompetensiya** – o'quvchining ma'lum sohada samarali faoliyat ko'rsatishi uchun ta'lim tayorgarligiga oldindan qo'yilgan ijtimoiy talab.

Kompetentlik ko'r qirrali bo'lib uning bir necha talqinlari mavjud.

**Kompetentlik** – o'quvchi tomonidan tegishli kompetensiyalarga ega bo'lishi.

**Kompetentlik** – o'quvchida tarkib topgan shaxsiy sifatlar va berigan sohadagi faoliyati bo'yicha to'plagan minimal tajribasi.

**Kompetentlik** – o'quvchining shaxsiy sifatleri to'plami (bilimlar, ko'nikmalar, layoqatlar) bo'lib, belgilangan ijtimoiy va shaxsiy sohadagi faoliyatida orttirilgan tajribasi bilan belgilanadi.

Kompetensiyalarni, ta'lim kompetensiyalardan farqlash lozim. Ta'lim kompetensiyasi o'quvchini kelajakdagi to'la qonli hayotidagi faoliyatini modellashtiradi. Masalan, fuqaro ma'lum bir yoshga yetgunga qadar ba'zi bir kompetensiyalarni tatbiq eta olmaydi. Lekin, bu degani, ularni o'quvchida shakllantirmaydi, degani emas. Masalan, o'quvchi maktabda fuqarolik kompetensiyasini o'zlashtirsada, uni to'la qonli ravishda maktabni tugatganidan so'ng ishlatiladi. SHunga ko'ra, bunday kompetensiyalar, o'qish darvida ta'lim kompetensiyasi sifatida namoyon bo'ladi.

Tayanch kompetensiyalarning dunyo bo'yicha yagona ro'yxati yuq. CHunki har bir mamlakatning yoki hududning o'z an'analari, mentalitet iva o'ziga xos talablari bor. Kompetensiya – bu jamiyatning o'z fuqarolariga qo'ygan ijtimoiy buyurtmasi bo'lib, ularning ro'yxati ma'lum bir mamlakatdagi yoki regiondagi ijtimoiy muhit bilan belgilanadi. Bunday kelishuvga har doim ham erishib bo'lmaydi. Masalan: SHveysariyaning va Amerika Qo'shma shtatlarining iqtisoiy

hamkorlik va rivojlanish tashkiloti hamda ta'lim statistikasi Milliy institutning « tayanch kompetensiyalarni tanlash va aniqlash» nomli loyihasida tayanch kompetensiyalarni qat'iy ravishda aniqlab olishning imkoniyati bo'lmagan.

O'quvchining kompetentligiga doir turli kompetensiyalarning analizi shuni ko'rsatadiki, ular kreativ (ijodiy) yo'nalishga ega. Kreativ kompetensiyalarga «tajribadan biror foydali ma'lumot chiqarib olish», «muammoni yecha olish», «oldingi va hozirgi voqealar orasidagi o'zaro aloqani ochish», «yangi yechimlarni topa olish» kabilar kiradi. SHu bilan birga keltirilgan ko'nikmalar o'quvchi faoliyati va tajribasi, bilim, ko'nikmalarning butun majmuasini aks etirmaydi.

Kompetentlik – kompetensiyalarni qo'llay olishda ega bo'lishi kerak bo'lgan minimal tajribasi bo'lishni taqozo etadi. Bu haqda o'quvchining tayyogarligiga quyiladigan talablarni shakllantirishda, hamda o'quv jarayoni va darsliklarni loyihalashda esdan chiqarmaslik kerak.

O'quitishda ularning roli va o'rnini analiz qilish asosida ajratib olingan kompetensiyalarning asosiy fuksiyalarini sanab o'tamiz:

- kundalik hayotda yashash uchun tayyor bo'ladigan yosh fuqarolarga qo'yiladigan ijtimoiy tabning aks etishi;
- bilim, ko'nikma va malakalarini hamda faoliyat usullarini kompleks holda maqsadli qo'llashi uchun atrof muhitdan real obyektlarni ko'rsatishi;
- turli o'quv predmetlari va ta'lim sohalari mazmunining tarkibiy qismi bo'lishi;
- konkret masalalarni yechishda nazariy bilimlarni amaliyotda foydalanish bilan bo'lashi.

Kompetensiyalar qanday ketma-ketlikda bo'lishi kerak?

Ma'lumki, ba'zi kompetensiyadar, boshqalarga nisbatan umumiy yoki ahamiyatliroq bo'ladi. Shunga ko'ra, ularni uchta darajaga bo'lish mumkin:

- 1) Tayanch kompetensiyalar – ta'lim mazmunining umumiy (metapredmet) qismiga tegishli;
- 2) Umumpedagogik kompetensiyalari – ma'lum doiraga kiruvchi o'quv predmetlari va ta'lim sohasiga tegishli;



3) Predmetga oid kompetensiyalar – oldingi ikkitaga nisbatan xususiylar hisoblanib

o‘quv predmeti doirasida shakllantiriladi.

Tayanch kompetensiyalar har safar ta’limning ma’lum bir bosqichi va belgilangan o‘quv predmeti uchun konkretlashtiriladi. Masalan: o‘qib-o‘rganishga tegishli kompetensiya umumpredmet kompetensiyasida shaxs sifatida rivojlanish (refleksiya)ga qo‘shilsa, predmet kompetensiyasi hisoblangan tarix fani bo‘yicha, har qanday tarixiy voqea turli tomonlarning manfaatlari kurashini ajratib olish qobiliyati yotadi. Kompetensiyalarni an’anaviy ta’lim parametrlari bilan taqqoslanishini ta’minlash uchun «ta’lim kompetensiyalari» tushunchasini kompetensiyaning struktura komponentlari ro‘yxati orqali ochamiz:

- kompetensiyaning nomi;
- kompetensiya tipi va uning umumiy ketma-ketligidagi o‘rni (tayanch, umumpredmet, predmet);
- kompetensiyalar kiritiladigan, real faoliyat ko‘rsatadigan obyektlar doirasi;
- kompetensiyaning ijtimoiy-amaliy bo‘liqligi va ahamiyati (u jamiyat uchun nima sababdan kerak?);
- kompetensiyaning shaxsga nisbatan ahamiyati (nima sababdan o‘quvchi kompetent bo‘lishi kerak?);
- real obyektlar doirasiga oidi bilimlari;
- berilgan real obyektlar doirasiga oid ko‘nikma va malakalar;

Mazkur kompetensiya doirasida o‘quvchining faoliyati ko‘rsatishi uchun kerak bo‘ladigan minimal tajribasi (o‘qitish bosqichlari bo‘yicha);

- indikatorlar – o‘quvchi kompetentligi (o‘qitish bosqichlari bo‘yicha) darajasini aniqlash uchun o‘quv va nazorat-baholash topshiriqlari namunalari, misollari.

Keltirilgan to‘plam me’yoriy hujjatlar, o‘quv va metodik adabiyotlar, shuningdek, o‘quvchilarning umum tayyorgarligini o‘lchash, shu bilan birga ularning kreativ tayyorgarligi darajasini o‘lchaydigan hujjatlarni loyihala shva yoritish uchun xarakterlovchi to‘plamni belgilaydi.

Didaktika va metodikalarda tayanch, umumpedagogik va predmet kompetensiyalari mazmunini aks ettirish uchun ularni maxsus texnologiya asosida konstruksiyani tuzish kerak.

Loyihalashning birinchi bosqichida, tanlab olingan o'quv predmetiga (matematika, tarix informatika va h.k.) tegishli ta'lim kompetensiyalari ro'yxati tuziladi. Buning uchun predmetda tayanch kompetensiyalar (kommunikativ, axborot bilan ishlash va h.k.) qidirib topiladi. O'quv predmetining tayanch kompetensiyalarni shakllantirishga qo'shishi mumkin bo'lgan hissasi aniqlanadi.

So'ngra predmet kompetensiyalarini tuzish uchun, o'quv predmetining tizimlashtirilgan komponentining minimal ro'yxati tuziladi:

1) Obyektiv borliq obyektlari (tabiiy, madaniy, ijtimoiy hodisalar, texnik qurilmalar, manba-asarlar va h.k.). fan yoki faoliyat sohalridan o'quv predmeti uchun real predmet va hodisalarni ajratib olinadi. Masalan, bular sifatida – ona tilida, tovush, so'z va h.k. dan tuzilgan o-zaki nutiqni real jarayon deb, asarlardagi matnni moddiy obyektlar deb olish mumkin.

2) O'rganilayotgan borliq haqidagi umummadaniy bilimlar:

Insoniyat tomonidan tegishli obyektga nisbatan ishlab chiqilgan qoidalar, qonunlar, nazariyalar, tushunchalar, qarama-qarshiliklar, madaniy ahamiyatga ega faktlar, - o'yalar, gipotezalar, muammolar, texnologiyalar, alternativ yondoshuvlar va boshqa bilimlar.

3) Umumiy va umumo'quv ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlari. O'quv predmetiga tegishli va umumpredmet ahamiyatiga ega bo'lgan konkret ko'nikmalar, malakalar, faoliyat turlarining guruhlar bo'yicha tizimlashtirilgan ro'yxati keltiriladi. Umumiy predmet yoki predmetlararo kompetensiyalarni ishlab chiqish uchun turli o'quv predmetlari orasida umumiy bo'lgan bilish faoliyatlari, ko'nikmalari, malakalari va qo'llanish usullari olinadi.

Predmetlararo kompetensiyalarga misol tariqasida tabiatshunoslikda uchraydigan elementlarni ko'rib chiqamiz:

- tabiatda o'zini tutish va faoliyat yuritish ( o'rmonda, suv havzalarida, yilning fasillarida turli tabiiy va iqlimiy sharoitlarda –mo'ljal olish, xavfsizlik,

qo‘ziqorin va mevalar terish, baliq ovlash; qushlar va mahalliy hayvonlarni kuzatish; tungi osmonga qarab mo‘ljal olish, kompas yordamida ufq tomonlarini aniqlash, vaqtni aniqlash va h.k.).

- qishloqda va shaharda tabiiy bilim, ko‘nikma va hayotiy tajribalardan foydalanish, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirish.

- uy hayvonlariga qarash (mushuk, kuchuk, akvarium baliqlari, to‘tilar, sigir, tovuqlar, quyonlar – shulardan bittasini tanlagan holda).

- xonadagi o‘simliklarga qarash: gullar ekish, ularni su-orish, tuproq tarkibi, yoru-lik, issiqlik-ixtiyoriy ravishda biror bir o‘simlikni o‘stirish.

- o‘z tanasini parvarish qilish: shaxsiy gigiena qoidalariga rioya qilish, kun tartibi, tana haroratini o‘lchash va h.k.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim – o‘quvchilarda egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarini o‘z shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatlarida amaliy qo‘llay olish kompetensiyalarini shakllantirishga yo‘naltirilgan ta’limdir.

Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta’lim o‘quvchilarda mustaqillik, faol fuqarolik pozitsiyasiga ega bo‘lish, tashabbuskorlik, mediaresurslar va axborot- kommunikatsiya texnologiyalaridan o‘z faoliyatida oqilona foydalana olish, ongli ravishda kasb-hunar tanlash, sog‘lom raqobat hamda umummadaniy ko‘nikmalarini shakllantiradi.

Inson o‘z hayotida shaxsiy, ijtimoiy, iqtisodiy va kasbiy munosabatlarga kirishishi, jamiyatda o‘z o‘rnini egallashi, duch keladigan muammolarning yechimini hal etishi, eng muhimi o‘z sohasi, kasbi bo‘yicha raqobatbardosh bo‘lishi uchun zarur bo‘lgan **tayanch kompetensiyalarga** ega bo‘lishi lozim.

Tayanch kompetensiyalarni shakllantirish jarayonida quyidagi elementlarning shakllanishiga e’tibor qaratish lozim.

#### **Kommunikativ kompetensiya elementlari:**

- O‘z fikrini og‘zaki va tushunarli bayon qila olish.
- O‘z fikrini yozma ravishda savodli (imlo va uslubiy jihatdan) bayon qilish.
- Mavzu yuzasidan berilgan savollarga javob berish.

- Muloqotda suhbatdosh fikrini xurmat qilish.
- Qarashlarini himoya qilish; guruhlarda hamkorlikda.

**Axborot bilan ishlash kompetensiyasi elementlari:**

- Dars jarayonida mavjud axborot manbalaridan foydalana olish.
- zarur bo‘lgan axborotlarni izlab topish.
- axborotlar ichida eng asosiylarini tanlab olish.
- axborotlarni tasarruf etish va tarqatish qoidalariga rioya qilish(foydalangan manzilni ko‘rsatish).
- ta’limga oid internet portallaridan foydalana olish.

**Shaxs sifatida o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasi elementlari:**

- Olgan bilimlarni kundalik faoliyatida qo‘llay olish.
- Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lay (mashq, misol, amaliy mashg‘ulot, laboratoriya ishi orqali) olish.
- Mustaqil ta’lim olish(fanga oid to‘garaklar, kitoblar o‘qish).
- O‘z xatti-harakatini adekvat baholay olish(kamchilik va xatolarni tushunish.
- Tizimlar, voqealar va hodisalar, vaziyatlar o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushunish.

**Ijtimoiy faol fuqorolik kompetensiyasi elementlari:**

- Dars jarayonida faol ishtirok etish.
- sinfdan tashqari va jamoat ishlarida faollik.
- tejankor bo‘lish, maktab mulki(parta, doska, shkaf va boshqa moddiy boyliklarni asrash. Tabiiy boyliklar suv, gaz. Elektr-energiya)ga oqilona munosabatda bo‘lish.
- o‘quv qurollarini tartibli saqlash.
- sinf mavqeini ko‘tarishga o‘z xissasini qo‘shish (fanlarni o‘zlashtirishda muammolari mavjud bo‘lgan o‘quvchilarga yordam berish.

**Umummadaniy kompetensiyalar elementlari:**

- Odob-axloq qoidalariga rioya qilish.
- Qabul qilingan maktab formasiga (maktab, sport, laboratoriya) rioya qilish.

- Umummilliy madaniyat(iqtisodiy, musiqa madaniyati, ekologik, tibiy va boshqa)ga rioya qilish.
- Nutq madaniyatiga rioya qilish; muomala madaniyatiga rioya qilish.
- Urf-odatlar marosimlar, milliy-madaniy anʼanalarga bagʻrikeng va sabrli boʻlish.

**Matematik savodxonlik, fan va texnika yangiliklaridan xabardor boʻlish hamda foydalanish kompetentsiyasi elementlari:**

- Fanga oid boʻlgan turli formula, model, chizma, grafik va diagrammalarni oʻqiy olish va foydalanish.
- Mavzuga oid taqdimot materiallarini tayyorlay olish.
- Taqdimot materiallarini tayyorlashda animatsiyalardan foydalanish.
- elektron darslik va oʻquv qoʻllanmalaridan foydalana olish.
- Elektron axborot resurslaridan (texnik) foydalana olish.

Bundan tashqari, taʼlimda har bir oʻquv fanini oʻzlashtirish jarayonida oʻquvchilarda shu fanning oʻziga xosligi, mazmunidan kelib chiqqan holda, sohaga tegishli **xususiy kompetentsiyalar** ham shakllantiriladi.

Oʻzbekiston Respublikasida taʼlimning uzluksizligi, barkamol shaxsni tarbiyalashga yoʻnaltirilganligidan kelib chiqqan holda, umumiy oʻrta, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimida (9+3) oʻqitiladigan umumtaʼlim fanlari mazmunining izchilligini taʼminlash maqsadida tayanch kompetentsiyalar hamda har bir oʻquv fani mazmunidan kelib chiqqan holda xususiy kompetentsiyalar belgilandi.

Xususan, biologiya taʼlimi jarayonida quyidagi xususiy kompetentsiyalar shakllantirilishi koʻzda tutilgan.

Biologiya fani boʻyicha A1 daraja uchun majburiy minimal taʼlim mazmuniga qoʻyilgan talablar:

**1. Biologik obʼektlarni tanish, ularda boradigan jarayonlarni tushunish va izohlash kompetentsiyasi.**

Tabiiy ob'ektlarni taniydi (hujayra, o'simlik, hayvon, zamburug' va bakteriyalar, odam organizmi, tirik organizmlarning tuzilish darajalari), ularning tuzilishidagi o'ziga xosliklarni anglaydi, biologik jarayonlar modda va energiya almashinuvi, oziqlanish, nafas olish, ayirish, ta'sirlanish, o'sish, rivojlanish, ko'payish, hayotiy jarayonlarning boshqarilish mohiyatini yoritadi, qiyoslaydi, umumiy va farqli jihatlarini aniqlaydi.

## **2. Biologik ob'ektlarda boradigan jarayonlarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va xulosalash kompetentsiyasi.**

Maktab tajriba maydonida va sinf xonalarda o'stirilayotgan o'simliklarni taniydi, maktabning tirik burchagidagi va tabiatdagi hayvonlarni kuzatadi. Tajriba maydonlarida o'stirilayotgan o'simliklarda tajribalar o'tkazadi va xulosalar chiqaradi. Biologiya xonasida mavjud didaktik va tarqatma materiallar, laboratoriya jihozlari bilan ishlaydi, vaqtinchalik preparat tayyorlaydi va xavfsizlik qoidalariga rioya qilishni biladi.

## **3. Sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetentsiya.**

Tabiatda o'zini tutishning asosiy qoidalari va sog'lom turmush tarzi asoslarini biladi, o'zining va o'zgalarning sog'ligini asrash qoidalarini biladi va o'z organizmini nazorat qila oladi.

Biologiya fani bo'yicha A2 daraja uchun majburiy minimal ta'lim mazmuniga qo'yilgan talablar:

### **1. Biologik ob'ektlarni tanish, ularda boradigan jarayonlarni tushunish va izohlash kompetentsiyasi.**

Atamalar, xususiy va umumbiologik tushunchalar, biologik qonunlarning mazmun-mohiyatini biladi va tasniflaydi, mavzular yuzasidan vujudga kelgan o'quv muammolarini anglaydi, muammoni hal etish maqsadida g'oyalarni ilgari suradi, o'z fikrini bayon etadi va asoslaydi, tushunchalarni tahlil qila oladi, umumlashtirib, muammoni hal etish yuzasidan xulosalar chiqaradi.

Biologik axborotlarning turli manbalari (darslik, o'quv qo'llanma, ilmiy – ommaviy adabiyotlar, biologik lug'atlar, entsiklopediyalar, elektron – axborot ta'lim resurslari va hokozolar) bilan ishlaydi, kerakli ma'lumotlarni ajratadi, ma'lumotlarni tahlil qiladi va amalda qo'llaydi.

## **2. Biologik ob'ektlarda boradigan jarayonlarni kuzatish, tajribalar o'tkazish va xulosalash kompetentsiyasi.**

Biologik ob'ektlarda boradigan jarayonlar, tirik organizmlarning moslanishi va tarqalishini o'rganish uchun tajriba va kuzatishlarni aniq maqsad va reja asosida olib

boradi, ma'lumotlar to'playdi, natijalarni qayd etadi, olingan natijalarni tahlil qila oladi, umumlashtiradi, xulosalay oladi.

## **3. Sog'lom turmush tarzi va ekologik kompetentsiya.**

- Odamda uchraydigan irsiy kasalliklar va ularning oldini olish haqida ma'lumotlarni biladi;


- yuqumli va surunkali kasalliklarning oldini olish maqsadida gigienik va ratsional ovqatlanish qoidalari, organizmlarda parazitlik qiladigan hayvonlarning rivojlanish tsiklini o'zlashtirgan holda ularga qarshi kurash usullarini biladi, yuqtirmaslik chora– tadbirlarini qo'llay oladi, zaharli o'simliklar va oziq-ovqat mahsulotlaridan zaharlanishning oldini ola oladi, turli omillar va hayvonlar tomonidan jarohatlanganda, shamollaganda, kuyganda, oftob va sovuq urganda, suyak va paylar shikastlanganda, suvga cho'kkanda birinchi yordam ko'rsatish usullarini qo'llay oladi;

- kun tartibiga rioya qiladi, jismoniy mehnat va aqliy faoliyatni uyg'un ravishda amalga oshirish yo'llarini tushunadi, inson salomatligiga ekologik omillarning ijobiy va salbiy ta'siri, zararli odatlarning oqibatlarini tahlil qilib izohlay oladi;

- ta'lim muassasasi va mahallalarda obodonlashtirish borasida olib boriladigan ijtimoiy foydali tadbirlarda faol qatnashadi, biologiya xonasi va tirik tabiat burchagida xona o'simliklarini, maktab tajriba yer maydonchasida madaniy o'simliklar va uy hayvonlarini parvarishlaydi va ko'paytirishni bajara oladi;

- tabiat va boshqa insonlar bilan munosabatda o'z xatti – harakatlarini ongli ravishda boshqara oladi, tabiat go'zalliklari va biologik ob'ektlarini estetik jihatdan baholay oladi. O'quvchilar kompetentligini shakllantirish jarayonida avvalombor ta'lim muassasasi

rahbar va pedagog xodimlari o'quvchilar kompetentligini shakllanish hamda rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlab olish zarur. Ular quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin.



Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, biologiya fani o'qituvchilari ta'lim-tarbiya jarayonida quyidagilarga e'tibor qaratishlari muhim o'rin tutadi.

- Biologiya fanida DTS va o'quv dasturini sinchiklab o'rganib chiqish kerak, uning mazmun va mohiyatini o'zlashtirib olish zarur;

- O'quvchilar tomonidan fan mazmunini o'zlashtirishda yuzaga kelgan muammolarni aniqlash, muammolarni hal etish yuzasidan chora tadbirlar ishlab chiqishlari.

- Biologiya fanini o'qitishda ko'rgazmali metodlar yetakchi o'rinni egallashini hisobga olib tabiiy va tasviriy didaktik materiallar hamada vositalardan foydalanishga e'tibor qaratishlari.

- Dars va darsdan darsqari mashg'ulotlarda tadqiqotchilik hamda loyihalashtirish ta'lim texnologiyalaridan ko'proq foydalanish maqsadga muvofiq.



- Biologiya fani tabiiy fanlar tarkibiga kirishi sababli amaliy va mantiqiy metodlardan samarali foydalanish zarur.

O'quvchilarning fan bo'yicha kompetentligini oshirishda elektron ta'lim resurslari muhim ahamiyat kasb etadi. Shu maqsadda respublika multimedia markazi va boshqa muassasalar tomonidan yaratilgan yangi elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish.

- O'qituvchilar axborot texnologiyalari yordamida qo'shimcha elektron ta'lim resurslarini va didaktik materiallar hamda vositalarni yaratishlari zarur.

Ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etish va uning sifatini boshqarishda ushbu jarayonga yangicha yondashib, ijodkorlik, bunyodkorlik tatbiq etilsagina va pedagogik faoliyat jarayonlari metodologik hamda psixologik jihatdan to'g'ri tashkil qilinganidagina, ta'lim samarasi yangi bosqichga ko'tariladi.

Demak, ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion texnologiyalarni joriy etish orqali:

- o'quvchilarning bilim olishga bo'lgan talabi, moyilligi, is tak-xohishi uning imkoniyatlari darajasida qondiriladi;

- o'quvchining o'quv mehnatiga mas'uliyati, javobgarligi va burchi oshadi;

- bilimlarni mustaqil egallash va ijodkorlik malakalari shakllanadi;

- o'z bilimi, ko'nikmasi va malakasiga bo'lgan ishonchi ortadi;

- erkin fikrlash malakasi shakllanadi;

- o'quvchilarda hayotiy ko'nikmalar shakllanadi;

- shaxs jamiyatda o'zining o'rnini tezroq topib olishiga muhit yaratadi.

Xulosa qilib aytganda, o'quvchilar kompetentligining shakllanishi va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni o'z vaqtida bartaraf etish hamda ta'lim-tarbiya jarayoniga innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish, shaxsning ta'lim markazida bo'lishini va yoshlarning mustaqil bilim olishlarini ta'minlash bugungi biologik ta'lim-tarbiya jarayonining ustuvor vazifasi bo'lib qolmoqda.

## **2.2. Odam va uning salomatligi fanidan Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o‘qitish metodi), blits so‘rov, suhbat, tushuntirish, “Tushunchalar tahlili” metodi asosida kompetensiyalarni shakllantirish .**

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi turli mamlakatlardagi jumladan Amerikadagi J.Xopkins universiteti professori R.Slavin (1990), Minnesot universiteti professorlari R.Jonson, D.Jonson (1987), Kaliforniya universiteti professori J.Aronson (1978), Izroildagi Tel-Aviv universiteti professori SH.Sharan (1988) tomonidan ishlab chiqilgan. Amerika olimlari tomonidan ishlab chiqilgan hamkorlikda o‘qitish asosan o‘quvchilarda DTS va fan dasturida qayd etilgan bilim, ko‘nikma va malakalarni shakllantirish, Izroil va Yevropa olimlari tomonidan tavsiya etilgan hamkorlikda o‘qitish yuqorida qayd etilganlar bilan bir qatorda, ko‘proq o‘quvchilar tomonidan o‘quv materialini qayta ishlash, loyihalash faoliyatini rivojlantirish, o‘quv bahsi va munozaralar o‘tkazishni nazarda tutadi.

Mazkur g‘oyalar bir-birini to‘ldiradi, didaktik jihatdan boyitadi va bir-birini taqozo etadi.

Hamkorlikda o‘qitish g‘oyasi didaktikada 1970 yillarda paydo bo‘lgan. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi Buyuk Britaniya, Kanada, G‘arbiy Germaniya, Avstraliya, Niderlandiya, [Yaponiya](#), Izroil mamlakatlari ta‘lim muassasalarida keng qo‘llanila boshlagan. Hamkorlikda o‘qitishning asosiy g‘oyasi o‘quv topshiriqlarni nafaqat birgalikda bajarish, balki hamkorlikda o‘qitishni o‘rganishdir. Hamkorlikda o‘qitish har bir o‘quvchini kundalik qizg‘in aqliy mehnatga, ijodiy va mustaqil fikr yuritishga o‘rgatish, shaxs sifatida ongli mustaqillikni tarbiyalash, har bir o‘quvchida shaxsiy qadr-qimmat tuyg‘usini vujudga keltirish, o‘z kuchi va qobiliyatiga bo‘lgan ishonchni mustahkamlash, tahsil olishda ma’suliyat hissini shakllantirishni ko‘zda tutadi. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasi har bir o‘quvchining tahsil olishdagi muvaffaqiyati guruh muvaffaqiyatiga olib kelishini anglagan holda muntazam va sidqidildan aqliy mehnat qilishga, o‘quv topshiriqlarini sifatli bajarishga, o‘quv materialini puxta

o‘zlashtirishiga, o‘rtoqlariga hamkor bo‘lib, o‘zaro yordam uyushtirilishiga zamin tayyorlaydi.

➤ O‘qituvchi ta‘lim jarayonida hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanish maqsadida quyidagilarni:

➤ Qaysi mavzularni hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘rganish mumkinligini aniqlashi va mazkur darslarni taqvim-rejada belgilashi;

Ushbu mavzu bo‘yicha o‘quvchilarga tavsiya etiladigan o‘quv topshiriqlari va ularni bajarish yuzasidan ko‘rsatmalarni tayyorlashi;

Hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanib o‘tiladigan dars turi, dars strukturasi va borishini loyihalashi;

O‘tgan va yangi mavzular yuzasidan o‘quvchilar bilimni nazorat qilish uchun test topshiriqlarini tuzishi kerak.

Mazkur metodlardan foydalanganda shuni nazarda tutish kerakki, o‘quvchilar o‘z sheriklari bilan hamkorlikda o‘quv topshiriqlarni to‘g‘ri bajarishlari barobarida guruh a‘zolarining faolligi, [hamkorlikning vujudga kelishi](#), ular o‘rtasidagi muloqotda muloqot madaniyati tamoyillariga amal qilinishi ham hisobga olinadi.

Shunday qilib, guruh a‘zolari bir vaqtning o‘zida ikkita topshiriqni bajaradi:

1. akademik topshiriq - bilish va ijodiy izlanish orqali o‘quv topshiriqlaridan ko‘zlangan maqsadga erishish;

2. ijtimoiy-psixologik topshiriq - dars davomida yuksak muloqot madaniyatiga ega bo‘lish, odob osoyishtaligini saqlash;

O‘qituvchi har ikkala topshiriqning yuqori saviyada bajarilishini nazorat qiladi.

O‘qituvchi biologiya ta‘limi jarayonida hamkorlikda o‘qitish metodlaridan foydalanishi uchun ushbu texnologiyaning o‘ziga xos xususiyatlariga oid bilim, ko‘nikma va malakalarni, o‘quvchilarning mustaqil ishlari, o‘quv bahsi va munozaralarni samarali tashkil etish yo‘llarini egallagan, o‘quvchilarda esa darslik, ilmiy-ommabop adabiyotlar ustida mustaqil va ijodiy ishlash, o‘z fikrini

qisqa va aniq bayon etish, fikrlarni asoslash va dalillash, mantiqiy fikr yuritish, o‘quv bahsi va munozaralarda faol qatnashish ko‘nikmalari shakllangan va ongli intizom vujudga kelgan bo‘lishi lozim. Hamkorlikda o‘qitish texnologiyasining bir nechta metodlari mavjud.

## XULOSA

Mazkur bitiruv malakaviy ish biologiya darslarida mustaqil ishlarni olib borish ahamiyatiga qaratilgan.

Malakaviy ishlarda asosan quyidagilarga alohida e'tibor berilgan:

1. Biologiya o'qitish jarayonida kompetensiyalarni shakllantirish masalalarida unda an'anaviy o'qitish bilan barobar hozirgi zamon ilg'or pedagogik texnologiyalar qo'llanilgan.

2. Maktabda Odam va uning salomatligi fanidan kompetensiyalarni shakllantirish Hamkorlikda o'qitish texnologiyasi (kichik guruhlarda o'qitish metodi), blits so'rov, suhbat, tushuntirish, "Tushunchalar tahlili" metodlari bilan izohlanadi.

3. Odam va uning salomatligi fanidan kompetensiyalarni shakllantirishda yangi pedagogik texnologiya elementlarini foydalanish orqali o'quvchilarning bilimlarini reyting tizimi asosida odilana baholash juda yaxshi samarasini beradi. Natijada o'quvchilar bilimi va kompetensiyalarni shakllantiriladi.

5. O'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishda darsning asosiy mazmuni va dars shakllari alohida o'rin tutadi.

Xulosa qilib aytganda, bugungi kuni ta'lim tizimida qo'llanilayotgan an'anaviy ta'limning mazmuni o'zgaradi va yangi ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil etiladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sh. Mirziyoev. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2016. - 56 b.
2. Sh. Mirziyoev. Tanqidiy tah'lil, qat'iy tartib-intizom va shah'siy javobgarlik h'a'r bir rah'bar faoliyatining kundali k qoidasi bo'lishi kerak. – T.: "O'zbekiston", 2017. 104 b.
3. Uzviylashtirilgan Davlat talim standartlari va o'quv dasturi. Toshkent., "Marifat pres" 2010-yil.
4. M. Ochilov "Yangi pedagogik texnologiyalar" Qars hi: Nasaf, 2000-yil.
5. J.G. Yuldashev, S. A. Usmanov Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent, O'qituvchi, 2004-yil.
6. V.P. Bespalko. Pedagogika i progressivniye texnologii obucheniya. Moskva, IRPO, 1995.
7. G.K. Selevko. Sovremenniye obrazovatel'niye texnologii. Moskva. Narodnoye obrazovaniye, 1998.
8. E.S. Polat. Noviye pedagogichikiye i informauinniye texnologii v sisteme obrazovaniya. Moskva., "Akademiya" . 2000.
7. Zverev I.D., Myagkova A.N., Brunovt ye.P. Vospitaniye uchashixsya v protsesse obucheniya biologii. M.: Prosvesheniye, 1984. — 160 s.
9. Brunovt, yevgeniya Pavlovna. Formirovaniye priyemov umstvennoy deyatel'nosti uchashixsya . Moskva : Pedagogika, 1981. - 72 s.
10. Verzilin N.M., Korsunskaya V.M. Obshaya metodika prepodavaniya biologii 3-e izd. — M.: Prosvesheniye, 1976. — 383 s.
11. Gafurov A., Abdukarimov A., Talipova J. i dr. Biologiya. 10 klass Uchebnik. — Tashkent: Sharq, 2017. — 237 s.
12. G.M. Chernobel'skaya. " Osnova metodiki obucheniya biologii" Moskva, " Prosvesheniye " 1987.
13. L.V. Golish. Talimning faolusullari: mazmuni, tanlash, amalga oshirish
14. L.A. Svetkov obshaya metodika obucheniye ximii. Moskva, "Prosvesheniye" 1986.
15. I. Sushko. "Maktabdakimyo" Toshkent., "O'qituvchi" 1991-yil.
16. O. Xudayqulova, Kimyo fani o'qituvchilari uchun uslubiy tavsiyalar. Namangan 1996-yil.
17. [http : // w.w.w. disser. hioru / pedagog. html.](http://w.w.w.disser.hioru/pedagog.html)
18. [http : // w.w.w. zionet. uz /](http://w.w.w.zionet.uz/)